
№6 2026

ISSN: 3093-9240

FANLARARO ILMIY TADQIQOTLAR

IJTIMOIY-GUMANITAR SOHALARGA IXTISOSLASHGAN ILMIY JURNAL



FANLARARO ILMIY TADQIQOTLAR
ilmiy-amaliy metodologik jurnal

МЕЖДИСЦИПЛИНАРНЫЕ НАУЧНЫЕ ИССЛЕДОВАНИЯ
научно-практический и методологический журнал

INTERDISCIPLINARY SCIENTIFIC RESEARCH
scientific-practical and methodological journal



№6 2026

Jurnal O‘zbekiston Respublikasi Raqamli texnologiyalar vazirligi huzuridagi Axborotlashtirish va telekommunikatsiyalar sohasida nazorat inspeksiyasi tomonidan 2026-yil 5-may sanasida davlat ro‘yxatidan o‘tkazilib, 1564147-sonli rasmiy guvohnoma asosida faoliyat yuritadi.

BOSH MUHARRIR:

Ashurov Ramzidin Ramazonovich
psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

TAHRIRIYAT VA EKSPERT KENGASHI

Rejep Uzyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Blinova Yelena Yevgeyevna – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina Natalya Yuryevna– psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Abdullayeva Barno Sayfutdinovna – pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
Ibragimova Gulsanam Ne’matovna – pedagogika fanlari doktori, professor
Mamurov Bahodir Baxshullayevich – pedagogika fanlari doktori, professor
Filippova Oksana Gennadevna– pedagogika fanlari doktori, professor (Rossiya)
Abdazimov Azizjan Abdusabirovich - pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Mirzayeva Faroxat Odiljonovna – pedagogika fanlari doktori(DSc), professor
Akramova Gulbahor Renatovna – pedagogika fanlari doktori(DSc), professor
Bafayev Muxiddin Muxammatovich – psixologiya fanlari doktori (DSc), dotsent
Abdullayeva Dilbar Ubaydullayevna – psixologiya fanlari doktori (DSc), professor
Ismoilova Nurjahon Zuxuriddinovna – psixologiya fanlari doktori (DSc), professor
Farfiyeva Kamola Adhamdjanovna – psixologiya fanlari doktori (DSc), professor
Atabayeva Nargis Batirovna – psixologiya fanlari doktori (DSc), professor
Jabborov Xazrat Xusenovich – psixologiya fanlari doktori (DSc), professor
Akramov Mirmuhsin Rustamovich – psixologiya fanlari doktori (DSc), professor
Tuychieva Saodat Melikuziyevna – psixologiya fanlari doktori (DSc), professor
Ravshanov Lochinbek Urinovich – psixologiya fanlari doktori (DSc), professor
Gadoyeva Mavlyuda Ibragimovna– filologiya fanlari doktori (DSc), professor
Rasulov Zubaydullo Izomovich – filologiya fanlari doktori (DSc), professor
Qurbonboyev Azimbek Nazirboy o‘g‘li – psixologiya fanlari doktori (DSc), dotsent
Taniyeva Guldona Mamajonovna – tarix fanlari doktori, professor
Davlatova Saodat Tilovberdievna – tarix fanlari doktori, professor
Qurbonova Manzila Bozorovna – tarix fanlari nomzodi, professor
Turdiyev Bexruz Sobirovich – falsafa fanlari doktori, professor
Mirashirova Nargiza Anvarovna – psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), professor
G‘ayipova Nargiza Anorbayevna – psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Botirova Dilafruz Bozorovna – psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Alimova Yelena Gennadiyevna – psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Жексенбаева Гульнур – psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) (Qozog‘iston)
Kudratova Lola Ravshanovna – psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Ismatulloyev Abdullo Nasrulloyevich - psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
Jalilov Nodirjon Azamatovich – pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Vaxobov Anvar Abdusattor o‘g‘li – pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Raxmatova Mehriniso Musinovna – filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Rahmatullayev Sharofiddin Nematullayevich - filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
Xalilova Ruxsora Raupovna – filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Bobojonov Shavkat Ulug‘bekovich – tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sharipov Shoxruz Faxriddin o‘g‘li – tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
Bo‘tayev Jonibek Shodiyevich – tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
Bobojonova Feruza Xayatovna – tarix fanlari nomzodi, dotsent

Mas’ul muharrir:
Xayitov Xayotjon Xikmat o‘g‘li

Texnik muharrir
Salimova Aziza Zoyirovna

Ingliz tili muharriri
Abduraximov Doniyor Abdusaid o‘g‘li

ГЛАВНЫЙ РЕДАКТОР

Ашуров Рамзидин Рамазонович
доктор философии (PhD) по психологическим наукам, доцент

РЕДАКЦИОННО-ЭКСПЕРТНЫЙ СОВЕТ

Реджеп Узюрек – доктор психологических наук, профессор (Турция)
Блинова Елена Евгеньевна – доктор психологических наук, профессор (Россия)
Стоюхина Наталья Юрьевна – кандидат психологических наук, доцент (Россия)
Абдуллаева Барно Сайфутдиновна – доктор педагогических наук (DSc), профессор
Ибрагимова Гульсанам Неъматовна – доктор педагогических наук, профессор
Мамуров Баходир Бахшуллаевич – доктор педагогических наук, профессор
Филиппова Оксана Геннадьевна – доктор педагогических наук, профессор (Россия)
Абдазимов Азизжан Абдусабирович – доктор философии (PhD) по педагогическим наукам, доцент
Мирзаева Фарохат Одилжоновна – доктор педагогических наук (DSc), профессор
Акрамова Гульбахор Ренатовна – доктор педагогических наук (DSc), профессор
Бафаев Мухиддин Мухамматович – доктор психологических наук (DSc), доцент
Абдуллаева Дилбар Убайдуллаевна – доктор психологических наук (DSc), профессор
Исмоилова Нуржахон Зухуриддиновна – доктор психологических наук (DSc), профессор
Фарфиева Камола Адхамджановна – доктор психологических наук (DSc), профессор
Атабаева Наргис Батировна – доктор психологических наук (DSc), профессор
Жабборов Хазрат Хусенович – доктор психологических наук (DSc), профессор
Акрамов Мирмухсин Рустамович – доктор психологических наук (DSc), профессор
Туйчиева Саодат Меликузиевна – доктор психологических наук (DSc), профессор
Равшанов Лочинбек Уринович – доктор психологических наук (DSc), профессор
Гадоева Мавлюда Ибрагимовна – доктор филологических наук (DSc), профессор
Расулов Зубайдулло Изомович – доктор филологических наук (DSc), профессор
Курбонбоев Азимбек Назирбой угли – доктор психологических наук (DSc), доцент
Таниева Гулдона Мамажоновна – доктор исторических наук, профессор
Давлатова Саодат Тиловбердиевна – доктор исторических наук, профессор
Курбонова Манзила Бозоровна – кандидат исторических наук, профессор
Турдиев Бехруз Собирович – доктор философских наук, профессор
Мираширова Наргиза Анваровна – доктор философии (PhD) по психологическим наукам, профессор
Гайипова Наргиза Анорбаевна – доктор философии (PhD) по психологическим наукам, доцент
Ботирова Дилафруз Бозоровна – доктор философии (PhD) по психологическим наукам, доцент
Алимова Елена Геннадьевна – доктор философии (PhD) по психологическим наукам, доцент
Жексенбаева Гульнур – доктор философии (PhD) по психологическим наукам (Казахстан)
Кудратова Лола Равшановна – доктор философии (PhD) по психологическим наукам, доцент
Исматуллоев Абдулло Насруллоевич – доктор философии (PhD) по психологическим наукам
Жалилов Нодиржон Азаматович – доктор философии (PhD) по педагогическим наукам, доцент
Вахобов Анвар Абдусаттор угли – доктор философии (PhD) по педагогическим наукам, доцент
Рахматова Мехринисо Мусиновна – доктор философии (PhD) по филологическим наукам, доцент
Рахматуллаев Шарофиддин Нематуллаевич – доктор философии (PhD) по филологическим наукам
Халилова Рухсора Рауповна – доктор философии (PhD) по филологическим наукам, доцент
Бобожонов Шавкат Улугбекович – доктор философии (PhD) по историческим наукам, доцент
Шарипов Шохруз Фахриддин угли – доктор философии (PhD) по историческим наукам
Бутаев Жонибек Шодиевич – доктор философии (PhD) по историческим наукам
Бобожонова Феруза Хаятовна – кандидат исторических наук, доцент

Ответственный редактор
Хайитов Хаётжон Хикмат угли

Технический редактор
Салимова Азиза Зойировна

Редактор английского языка
Абдурахимов Дониёр Абдусаид угли

EDITOR-IN-CHIEF

Ashurov Ramzidin Ramazonovich
Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor

EDITORIAL AND EXPERT BOARD

Rejep Uzyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Türkiye)
Blinova Yelena Yevgeyevna– Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)
Stoyukhina Natalya Yuryevna – Candidate of Psychological Sciences, Associate Professor (Russia)
Abdullaeva Barno Sayfutdinovna– Doctor of Science (DSc) in Pedagogy, Professor
Ibragimova Gulsanam Nematovna– Doctor of Pedagogical Sciences, Professor
Mamurov Bakhodir Bakhshullaevich – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor
Filippova Oksana Gennadevna– Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Russia)
Abdazimov Azizjan Abdusabirovich– Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy, Associate Professor
Mirzaeva Faroxat Odiljonovna – Doctor of Science (DSc) in Pedagogy, Professor
Akramova Gulbahor Renatovna– Doctor of Science (DSc) in Pedagogy, Professor
Bafaev Muxiddin Muxammatovich– Doctor of Science (DSc) in Psychology, Associate Professor
Abdullaeva Dilbar Ubaydullaevna– Doctor of Science (DSc) in Psychology, Professor
Ismoilova Nurjakhon Zukhuriddinovna– Doctor of Science (DSc) in Psychology, Professor
Farfiyeva Kamola Adhamdjanovna– Doctor of Science (DSc) in Psychology, Professor
Atabaeva Nargis Batirovna– Doctor of Science (DSc) in Psychology, Professor
Jabborov Khazrat Khusenovich – Doctor of Science (DSc) in Psychology, Professor
Akramov Mirmukhsin Rustamovich – Doctor of Science (DSc) in Psychology, Professor
Tuychieva Saodat Melikuziyevna – Doctor of Science (DSc) in Psychology, Professor
Ravshanov Lochinbek Urinovich – Doctor of Science (DSc) in Psychology, Professor
Gadoyeva Mavlyuda Ibragimovna– Doctor of Science (DSc) in Philology, Professor
Rasulov Zubaydullo Izomovich – Doctor of Science (DSc) in Philology, Professor
Qurbonboev Azimbek Nazirboy ugli – Doctor of Science (DSc) in Psychology, Associate Professor
Taniyeva Guldona Mamajonovna – Doctor of Historical Sciences, Professor
Davlatova Saodat Tilovberdievna – Doctor of Historical Sciences, Professor
Qurbonova Manzila Bozorovna – Candidate of Historical Sciences, Professor
Turdiev Bexruz Sobirovich – Doctor of Philosophical Sciences, Professor
Mirashirova Nargiza Anvarovna – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Professor
Gayipova Nargiza Anorbayevna– Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor
Botirova Dilafruz Bozorovna – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor
Alimova Yelena Gennadiyevna – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor
Gulnur Zheksenbaeva – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology (Kazakhstan)
Kudratova Lola Ravshanovna – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor
Ismatulloev Abdullo Nasrulloevich – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology
Jalilov Nodirjon Azamatovich – Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy, Associate Professor
Vaxobov Anvar Abdusattor ugli – Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy, Associate Professor
Raxmatova Mehriniso Musinovna – Doctor of Philosophy (PhD) in Philology, Associate Professor
Rahmatullayev Sharofiddin Nematullayevich – Doctor of Philosophy (PhD) in Philology
Khalilova Rukhsora Raupovna – Doctor of Philosophy (PhD) in Philology, Associate Professor
Bobojonov Shavkat Ulug‘bekovich – Doctor of Philosophy (PhD) in History, Associate Professor
Sharipov Shokhruz Fakhriddin ugli – Doctor of Philosophy (PhD) in History
Butayev Jonibek Shodievich– Doctor of Philosophy (PhD) in History
Bobojonova Feruza Khayatovna – Candidate of Historical Sciences, Associate Professor

Responsible editor
Khayitov Khayotjon Khikmat ugli

Technical editor
Salimova Aziza Zoyirovna

English language editor
Abduraximov Doniyor Abdusaid ugli

OLIY TA’LIMDA SOG‘LOM PSIXOLOGIK MUHITNI SHAKLLANTIRISHNING ASOSIY OMILLARI

Xusanbayeva Ziyoda Maxmutdjon qizi
Toshkent Amaliy Fanlar Universiteti
Psixologiya kafedrasi o‘qituvchisi
Email: ziyodaxusanboyeva@gmail.com
https://orcid.org/ 0009-0002-5588-1557

Annotatsiya. Ushbu maqolada oliy ta’lim muassasalarida xodimlar o‘rtasida psixologik muhitni shakllantirish omillari ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilingan. Ta’lim tashkilotlarida samarali faoliyat yuritish, sog‘lom ijtimoiy-psixologik iqlimni ta’minlash hamda xodimlarning kasbiy farovonligini oshirish zarurati bilan belgilanadi.Maqolada psixologik muhit tushunchasining mazmuni ochib berilib, uni shakllantiruvchi asosiy omillar - shaxslararo munosabatlar, kommunikativ madaniyat, boshqaruv uslubi, tashkilot ichki iqlimi, mehnat sharoitlari hamda xodimlarning individual psixologik xususiyatlari tizimli ravishda yoritilgan.

Oliy ta’lim muassasalarida xodimlar o‘rtasida sog‘lom psixologik muhitni shakllantirish mehnat unumdorligini oshirish, kasbiy kuyishning oldini olish hamda tashkilot samaradorligini ta’minlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Kalit so‘zlar: Psixologik muhit, oliy ta’lim, xodimlar, kommunikativ madaniyat, boshqaruv uslubi, kasbiy kuyish, ijtimoiy-psixologik iqlim.

ОСНОВНЫЕ ФАКТОРЫ ФОРМИРОВАНИЯ ЗДОРОВОЙ ПСИХОЛОГИЧЕСКОЙ СРЕДЫ В ВЫСШЕМ ОБРАЗОВАНИИ

Аннотация. В данной статье с научной и теоретической точки зрения анализируются факторы формирования психологической среды среди сотрудников высших учебных заведений. Оно определяется необходимостью эффективной деятельности в образовательных организациях, обеспечения здорового социально-психологического климата, повышения профессионального благополучия сотрудников.

В статье раскрывается значение понятия психологическая среда, а также систематически освещаются основные факторы, ее формирующие - межличностные отношения, коммуникативная культура, стиль управления, внутренний климат организации, условия труда, а также индивидуально-психологические особенности сотрудников.

Создание здоровой психологической среды среди сотрудников вузов имеет важное значение для повышения производительности труда, предотвращения профессионального выгорания и обеспечения организационной эффективности.

Ключевые слова: психологическая среда, высшее образование, сотрудники, коммуникативная культура, стиль управления, профессиональное выгорание, социально-психологический климат.

KEY FACTORS IN CREATING A HEALTHY PSYCHOLOGICAL ENVIRONMENT IN HIGHER EDUCATION

Abstract: In this article, the factors of formation of psychological environment among employees in higher educational institutions are analyzed from a scientific and theoretical point of view. It is determined by the need to effectively operate in educational organizations, to ensure a healthy social and psychological climate, and to improve the professional well-being of employees.

The article reveals the meaning of the concept of psychological environment, and the main factors that form it - interpersonal relations, communicative culture, management style, internal climate of the organization, working conditions and individual psychological characteristics of employees are systematically covered.

Creating a healthy psychological environment among employees in higher education institutions is important in increasing labor productivity, preventing professional burnout, and ensuring organizational efficiency.

Keywords: psychological environment, higher education, employees, communicative culture, management style, professional burnout, socio-psychological climate.

KIRISH

Bugungi kunda jahon ta’lim tizimida oliy ta’lim muassasalarining asosiy vazifalaridan biri nafaqat yuqori malakali mutaxassislar tayyorlash, balki talabalar va professor-o‘qituvchilar tarkibining psixologik salomatligini saqlash va mustahkamlashga qaratilgan sog‘lom ta’lim muhitini yaratishdan iborat. O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan keng qamrovli ta’lim islohotlari, xususan, Oliy ta’lim tizimini raqamlashtirish va xalqaro standartlarga integratsiyalash sharoitida talabalarning psixologik farovonligi, stressga chidamliligi va ijobiy psixologik iqlim masalalari alohida dolzarblik kasb etmoqda.

Sog‘lom psixologik muhit tushunchasi o‘z ichiga nizo darajasining pastligi, o‘zaro hurmat, psixologik xavfsizlik, emotsional qo‘llab-quvvatlash tizimining

mavjudligi va shaxsning to‘liq rivojlanishi uchun qulay shart-sharoitlarni qamrab oladi. Mazkur muhitning shakllanishiga ta’sir etuvchi omillarni bir necha guruhga bo‘lish mumkin: tashkiliy-boshqaruv (universitet siyosati, rahbariyatning psixologik komponentga e’tibori), ijtimoiy-psixologik (guruhlararo munosabatlar, o‘qituvchi-talaba muloqoti), shaxsiy (talabalarning motivatsiyasi, stressni boshqarish kompetensiyasi) va moddiy-texnik (o‘quv binolari, dam olish zonalari, psixologik xizmat xonalari) omillar.

Ushbu maqolaning maqsadi oliy ta’lim muassasasida sog‘lom psixologik muhitni shakllantirishning asosiy omillarini aniqlash va ularning o‘zaro ta’sir mexanizmini ilmiy-nazariy asoslashdan iborat. Tadqiqotning ilmiy yangiligi - omillarni muhitning tarkibiy qismlari (akademik, ijtimoiy, emotsional, boshqaruv) bilan bog‘liq holda tipologiyasini takomillashtirish va amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat. Sog‘lom psixologik muhit esa o‘zaro hurmat, qo‘llab-quvvatlash, ochiq muloqot va ijobiy emotsional iqlim asosida shakllanadi.

Oliy ta’lim muassasalarida sog‘lom psixologik muhitni ta’minlash bugungi kunda dolzarb muammolardan biri hisoblanadi. Chunki salbiy psixologik iqlim talabalarda stress, tashvish, motivatsiyaning pasayishi hamda kasbiy kuyish kabi holatlarning yuzaga kelishiga olib kelishi mumkin. Shu bois ta’lim jarayonida pedagoglar, rahbarlar va talabalar o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlarni to‘g‘ri yo‘lga qo‘yish, ijobiy psixologik muhitni shakllantirish omillarini aniqlash va ularni amaliyotga tatbiq etish muhim ilmiy va amaliy ahamiyatga ega.

Mazkur maqolaning maqsadi oliy ta’lim muassasalarida sog‘lom psixologik muhitni shakllantirishga ta’sir etuvchi asosiy omillarni tahlil qilish hamda ularni takomillashtirish bo‘yicha ilmiy asoslangan tavsiyalar ishlab chiqishdan iboratdir.

MAVZUNING O‘RGANILGANLIGI VA METODOLOGIYASI

Oliy ta’lim tizimida sog‘lom psixologik muhitni shakllantirish masalasi pedagogika va psixologiya fanlarida keng o‘rganilgan dolzarb yo‘nalishlardan biridir. Mazkur muammo ijtimoiy-psixologik iqlim, shaxslararo munosabatlar, motivatsiya hamda kasbiy rivojlanish bilan uzviy bog‘liq holda tadqiq etilgan.

Xorijiy olimlardan K. Levin, D. Meyo, hamda A. Maslou tadqiqotlarida ijtimoiy muhit va shaxs rivoji o‘rtasidagi bog‘liqlik asoslab berilgan. Xususan, K. Levinning “maydon nazariyasi”ga ko‘ra, shaxs xulqi uning atrof-muhiti bilan o‘zaro ta’siri natijasida shakllanadi. A. Maslou esa ehtiyojlar ierarxiyasi nazariyasida insonning o‘zini namoyon qilishi uchun qulay psixologik muhit zarurligini ta’kidlaydi. Shuningdek, F. Herzbergning ikki omilli nazariyasida motivatsiya va ish sharoitining psixologik jihatlari alohida ahamiyat kasb etadi.

MDH olimlari tomonidan ham ta’lim muassasalarida ijtimoiy-psixologik iqlim masalalari keng o‘rganilgan. B.G. Ananev, A.V. Petrovsky, V.N. Myasishchev

tadqiqotlarida shaxslararo munosabatlar tizimi va jamoa psixologiyasi asosiy omil sifatida ko‘rib chiqiladi. A.V. Petrovsky jamoada ijobiy psixologik iqlimni shakllantirishda o‘zaro hamkorlik, ijtimoiy rollar va qadriyatlar muhim ekanligini ta’kidlaydi.

O‘zbek olimlari tomonidan ham ushbu muammo bo‘yicha qator ilmiy izlanishlar olib borilgan. Jumladan, N. Jo‘rayev, B. Qodirov, M. Davletshin, E. G‘oziyev kabi olimlar ta’lim jarayonida psixologik muhit, pedagogik muloqot va shaxs kamoloti o‘rtasidagi bog‘liqlikni tahlil qilganlar. Ularning tadqiqotlarida talaba va o‘qituvchi o‘rtasidagi o‘zaro hurmat va hamkorlikka asoslangan munosabatlar sog‘lom psixologik muhitning muhim omili sifatida qayd etiladi.

Zamonaviy tadqiqotlarda esa oliy ta’lim muassasalarida sog‘lom psixologik muhitni shakllantirishda quyidagi omillar muhim ekanligi ta’kidlanadi: ta’lim jarayonining insonparvarligi, pedagoglarning kommunikativ kompetensiyasi, talabalar motivatsiyasi, akademik erkinlik, shuningdek, stress va kasbiy kuyishning oldini olishga qaratilgan psixologik xizmatlarning mavjudligi.

Shu bilan birga, mavjud adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, oliy ta’lim muassasalarida sog‘lom psixologik muhitni kompleks tarzda shakllantirish, ayniqsa zamonaviy ta’lim sharoitida (raqamlashtirish, masofaviy ta’lim, yuqori raqobat) yetarlicha chuqur o‘rganilmagan. Bu esa mazkur yo‘nalishda qo‘shimcha ilmiy tadqiqotlar olib borishni taqozo etadi.

Mazkur tadqiqotda oliy ta’lim muassasalarida sog‘lom psixologik muhitni shakllantirish omillarini aniqlash va tahlil qilish maqsadida kompleks yondashuv asosida bir qator ilmiy metodlardan foydalanildi.Tadqiqotning nazariy-metodologik asosini shaxs rivoji, ijtimoiy-psixologik iqlim va pedagogik muloqot nazariyalari tashkil etadi. Xususan, K. Levinning maydon nazariyasi, A. Maslou ehtiyojlar ierarxiyasi konsepsiyasi, shuningdek, A.V. Petrovskiyning jamoa va shaxslararo munosabatlar haqidagi ilmiy qarashlari metodologik asos sifatida qabul qilindi.

Tadqiqot jarayonida quyidagi usullardan foydalanildi:

Nazariy tahlil usullari (ilmiy adabiyotlarni o‘rganish, tahlil qilish, umumlashtirish va tizimlashtirish) orqali mavzuga oid mavjud ilmiy qarashlar o‘rganildi hamda sog‘lom psixologik muhit tushunchasining mazmun-mohiyati aniqlashtirildi.

Empirik usullar sifatida so‘rovnoma (anketa), suhbat va kuzatish metodlari qo‘llanildi. Ushbu metodlar yordamida talaba va o‘qituvchilar o‘rtasidagi ijtimoiy-psixologik iqlim holati, o‘zaro munosabatlar darajasi va muhitga ta’sir etuvchi omillar aniqlab olindi

Psixodiagnostik metodlar yordamida respondentlarning stress darajasi, motivatsiyasi va psixologik holati baholandi.

Matematik-statistik tahlil usullari orqali olingan natijalar qayta ishlanib, ularning ishonchliligi va o‘zaro bog‘liqligi aniqlashtirildi.

Tadqiqot obyekti sifatida oliy ta’lim muassasalarida tahsil olayotgan talabalar hamda pedagog xodimlar tanlandi. Tadqiqot predmeti esa oliy ta’lim muassasalarida sog‘lom psixologik muhitni shakllantirishga ta’sir etuvchi ijtimoiy, psixologik va pedagogik omillar hisoblanadi.

Tadqiqot bir necha bosqichda amalga oshirildi: dastlab nazariy tahlil bosqichida muammo bo‘yicha ilmiy manbalar o‘rganildi; keyingi bosqichda empirik ma’lumotlar to‘plandi; yakuniy bosqichda esa olingan natijalar tahlil qilinib, ilmiy xulosalar va amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi.

Mazkur metodologiya tadqiqot natijalarining ilmiy asoslanganligi, obyektivligi va ishonchliligini ta’minlashga xizmat qiladi.

TAHLI VA NATIJALAR

Tadqiqot jarayonida olingan empirik ma’lumotlar oliy ta’lim muassasalarida sog‘lom psixologik muhitni shakllantirishga ta’sir etuvchi omillarni aniqlash va baholash imkonini berdi. So‘rovnoma, suhbat va kuzatish metodlari orqali talaba va pedagog xodimlarning psixologik muhitga bo‘lgan munosabati o‘rganildi.

Tahlil natijalariga ko‘ra, respondentlarning aksariyati (taxminan 65-70%) ta’lim muassasasidagi psixologik muhitni o‘rtacha darajada ijobiy deb baholagan bo‘lsa, 20-25% respondentlar muhitda ayrim muammolar mavjudligini qayd etgan. Jumladan, o‘zaro muloqotning yetarli darajada yo‘lga qo‘yilmagani, ayrim hollarda pedagog va talaba o‘rtasida psixologik masofaning mavjudligi, shuningdek, yuqori o‘quv yuklamasi natijasida yuzaga kelayotgan stress holatlari asosiy muammolar sifatida ko‘rsatildi

Kuzatish va suhbat natijalari shuni ko‘rsatdiki, sog‘lom psixologik muhitni shakllantirishda quyidagi omillar muhim rol o‘ynaydi: pedagoglarning kommunikativ kompetensiyasi, talabalar bilan individual yondashuv asosida ishlash, jamoada o‘zaro hurmat va ishonch muhitining mavjudligi, shuningdek, ta’lim jarayonining insonparvarlik tamoyillariga asoslanishi. Ayniqsa, o‘qituvchining talaba shaxsiga nisbatan ijobiy munosabati va qo‘llab-quvvatlashi talabalarning o‘quv motivatsiyasini oshirishda muhim omil sifatida namoyon bo‘ldi.

Psixodiagnostik natijalar esa respondentlar orasida stress va kasbiy kuyish elementlarining ma’lum darajada mavjudligini ko‘rsatdi. Xususan, yuqori kurs talabalari va pedagog xodimlar orasida emotsional charchoq va motivatsiyaning pasayishi holatlari ko‘proq uchrashi aniqlandi. Bu esa oliy ta’lim muassasalarida psixologik xizmatlarni yanada rivojlantirish zarurligini ko‘rsatadi.

Matematik-statistik tahlil natijalari sog‘lom psixologik muhit bilan talabalarning o‘quv motivatsiyasi o‘rtasida ijobiy bog‘liqlik mavjudligini tasdiqladi

(r≈0,6). Bu ko‘rsatkich psixologik muhit yaxshilangani sari talabalarning o‘qishga bo‘lgan qiziqishi va faolligi oshishini anglatadi

Umuman olganda, tadqiqot natijalari oliy ta’lim muassasalarida sog‘lom psixologik muhitni shakllantirish ko‘p omilli jarayon ekanligini ko‘rsatdi. Mazkur jarayonda pedagogik, psixologik va ijtimoiy omillar o‘zaro uzviy bog‘liq holda namoyon bo‘ladi hamda ularni kompleks tarzda hisobga olish zarur.

XULOSA

Mazkur tadqiqot natijalari oliy ta’lim muassasalarida sog‘lom psixologik muhitni shakllantirish murakkab va ko‘p omilli jarayon ekanligini yana bir bor tasdiqladi. Tadqiqot davomida aniqlanishicha, ta’lim muhitining ijtimoiy-psixologik holati talabalarning o‘quv faoliyati samaradorligi, ularning motivatsiyasi va shaxsiy rivojlanishiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi.

Olingan natijalar shuni ko‘rsatdiki, sog‘lom psixologik muhitni shakllantirishda pedagoglarning kommunikativ kompetensiyasi, ta’lim jarayonida insonparvarlik tamoyillariga amal qilinishi, o‘zaro hurmat va ishonchga asoslangan munosabatlar muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bilan birga, talabalar va pedagoglar orasida stress va emotsional charchoq holatlarining mavjudligi psixologik xizmat tizimini takomillashtirish zarurligini ko‘rsatdi.

Tadqiqot natijalariga asoslanib, quyidagi ilmiy-amaliy xulosalarga kelindi:

oliy ta’lim muassasalarida ijobiy ijtimoiy-psixologik iqlimni shakllantirish ta’lim sifatini oshirishning muhim omillaridan biridir;

pedagog va talaba o‘rtasidagi samarali muloqot sog‘lom psixologik muhitning asosiy shartlaridan biri hisoblanadi;

psixologik qo‘llab-quvvatlash tizimini rivojlantirish stress va kasbiy kuyishning oldini olishda muhim vosita bo‘lib xizmat qiladi;

Shuningdek, tadqiqot natijalariga tayangan holda quyidagi amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi:

oliy ta’lim muassasalarida psixologik xizmat faoliyatini kuchaytirish va muntazam monitoring tizimini joriy etish;

pedagog xodimlar uchun kommunikativ kompetensiyani rivojlantirishga qaratilgan trening va seminarlar tashkil etish;

stressni boshqarish va kasbiy kuyishning oldini olish bo‘yicha profilaktik ishlarni yo‘lga qo‘yish.

Umuman olganda, mazkur tadqiqot oliy ta’lim muassasalarida sog‘lom psixologik muhitni shakllantirishning nazariy va amaliy jihatlarini boyitadi hamda ushbu yo‘nalishda olib boriladigan keyingi ilmiy izlanishlar uchun muhim asos bo‘lib xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. 1.Ananev B.G. Chelovek kak predmet poznaniya. - L.: Leningrad universiteti nashriyoti,1968.-339b.
2. Maslow A.H. Motivation and Personality. - New York: Harper & Row, 1954. 411p.
3. Herzberg F. Work and the Nature of Man. - Cleveland: World Publishing Company,1966.203p.Lewin K. Field Theory in Social Science. - New York: Harper & Row, 1951. - 346
4. Ziyoda Xusanbayeva. (2025). Tashkilotda mobbing va uning xodimlar psixoemotsional salomatligiga ijtimoiy-psixologik ta’ siri. «Maktabgacha va Maktab Ta’limi» Jurnali, 3(6), 5-9. https://doi.org/10.5281/zenodo.15641066- 356 b.
5. Bulling xulq-atvorining namoyon bo‘lishi va uning maktab o‘quvchilarga bo‘lgan ta’siri. (2025). Maktabgacha va maktab ta’limi jurnali, *3*. https://doi.org/10.5281/zenodo.15641041

SPONTANEOUS ONLINE SHOPPING AS A STRESS-COPING MECHANISM Alena Garber., Railya Kereyeva	6
HARBIY XIZMATCHILAR FAOLIYATIDA IJOBIY IMIJINING PSIXOLOGIK JIHATLARI Ravshanov Lochinbek Urinovich	14
ALFRED ADLER INDIVIDUAL PSIXOLOGIYASIDA SHAXS SIBLING MAQOMI TALQINI G‘ayibova Nargiza Anorbayevna	20
QANDLI DIABETGA CHALINGAN SHAXSLARDA EMOTSIONAL BARQARORLIK VA INDIVIDUAL-PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARNING O‘ZARO ALOQADORLIGI Sadikova Umida Botirovna	27
O‘QITUVCHILARDA KASBIY STRESSNING YUZAGA KELISHIGA TA’SIR ETUVCHI INDIVIDUAL-PSIXOLOGIK OMILLAR Konratbaeva Ayjamal Bazarbaevna	35
OLIY TA’LIMDA SOG‘LOM PSIXOLOGIK MUHITNI SHAKLLANTIRISHNING ASOSIY OMILLARI Xusanbayeva Ziyoda Maxmutdjon qizi	43
O‘SMIRLIK DAVRIDA INKLYUZIV TA’LIM MUHITIDA IJTIMOIY TOLERANTLIKNING PSIXOLOGIK MOHIYATI Mirsidikova Aziza Mirvohidovna	50
HARBIY XIZMATCHILARDA KASBIY DEFORMATSIYANI OLDINI OLISHNING PSIXOLOGIK TEXNOLOGIYALARI Qodirov G‘olibjon Tolibjon o‘g‘li	63
TA’LIM JARAYONIDA DEONTOLOGIK TAMOYILLAR ASOSIDA NIZOLARNI BOSHQARISH Mirzayeva Faroxat Odiljonovna	70
PEDAGOGIK TAFAKKUR TARIXIDA FIKR TARBIYASI: YONDASHUVLAR VA ZAMONAVIY TA’LIMDA QO‘LLANISH IMKONIYATLARI Jumaniyozova Muhayyo Tojiyevna	78

KREATIV YONDASHUV ASOSIDA BO‘LAJAK INGLIZ TILI O‘QITUVCHILARINING LINGVOMETODIK KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISH METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH **Yuldasheva Umida Maxmudovna**	**85**
KURSANT VA TALABALARNING JISMONIY TAYYORGARLIGINI TAKOMILLASHTIRISH VA EKSTREMAL SHAROITLARDA HARAKAT QILISH KO‘NIKMALARINI SHAKLLANTIRISHNING INNOVATSION YONDASHUVLARI **Yulliyev Nuriddin Jumanazarovich**	**92**
SUN’IY INTELLEKTDAN FOYDALANGAN HOLDA TIBBIYOT OLIY TA’LIM MUASSASALARI TALABALARINING AXBOROT KOMPETENTSIYALARINI RIVOJLANTIRISH METODIKASINI ISHLAB CHIQISH TEXNOLOGIYASI **Sayfullaeva Dilbar Izzatillaevna**	**101**
KASBIY MADANIYATSHUNOSLIK KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISHDA KOMPETENSIYAVIY YONDASHUVNING IMKONIYATLARI **Komiljonova Mohinur Alllabergan qizi**	**110**
“TARBIYA” DARSLARIDA RAQAMLI HIKOYALAR ORQALI O‘QUVCHILARDA HALOLLIK, MAS’ULIYAT VA MEHR-OQIBAT FAZILATLARINI SHAKLLANTIRISH **Abdullayeva Surayyo Babojonovna**	**119**
O‘ZBEKISTONDA KIMYO O‘QITISH METODIKASINING SHAKLLANISHI VA TARIXIY TARAQQIYOTI **Sulaymonqulov Islomjon**	**131**
GLOBALLASHUV SHAROITIDA IJTIMOIY HIMOYA TERMINOLOGIYASINING TRANSFORMATSIYASI VA UNI MILLIY TERMIN SHAKLIDA TAKOMILLASHTIRISH MUAMMOLARI **Elmirzayeva Maftuna Do‘smurod qizi**	**136**

BOSHLANG‘ICH SINF O‘QITUVCHILARINI SHE’RIY ASARLAR TAHLILIGA TAYYORLASHNING ILMIY-METODIK ASOSLARI 145
Mullayeva Madina Qudratovna